

**IJTIMOY FAOLLIKNI OSHIRISHNING O'QUVCHI SHAXSINI  
RIVOJLANTIRISHDAGI PSIXOLOGIK O'RNI**

**Gulnora Sharopova XXX**

*Farg'ona viloyati Marg'ilon shahar 14- maktabi psixologi*

**Annotatsiya**

Mazkur maqolada o'quvchilarda ijtimoiy faollikni shakllantirishning psixologik-pedagogik asoslari hamda uning shaxs rivojlanishidagi ahamiyati yoritilgan. Ijtimoiy faollik o'quvchining jamiyat hayotida faol ishtirok etishi, fuqarolik mas'uliyatini his qilishi, tashabbuskorlik va mustaqil fikrlash kabi sifatlarini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Maqolada ijtimoiy faollikni shakllantirishga ta'sir etuvchi omillar, zamonaviy pedagogik yondashuvlar va oila hamda ta'lim muassasasining o'rni tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar**

ijtimoiy faollik, o'quvchi shaxsi, fuqarolik mas'uliyati, ijtimoiylashuv, motivatsiya, tashabbuskorlik, psixologik rivojlanish, tarbiya, hamkorlik, ta'lim.

**KIRISH**

Jamiyat taraqqiyoti har tomonlama rivojlangan, tashabbuskor va ijtimoiy faol shaxslarni tarbiyalash bilan chambarchas bog'liq. Shu sababli ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri o'quvchilarda ijtimoiy faollikni shakllantirish va ularni jamiyat hayotida faol ishtirok etishga tayyorlashdan iboratdir. Ijtimoiy faol o'quvchi nafaqat bilimlarni puxta egallaydi, balki jamoa bilan samarali ishlash, mas'uliyatli qaror qabul qilish va ijtimoiy muammolarga befarq bo'lmaslik kabi muhim fazilatlarini ham namoyon etadi.

Ijtimoiy faollik shaxsning jamiyat hayotidagi voqea va hodisalarga ongli munosabat bildirishi, tashabbus ko'rsatishi hamda umumiy manfaat yo'lida faol harakat qilish qobiliyatini ifodalaydi. Mazkur sifat bolalikdan boshlab shakllanadi va ta'lim-tarbiya jarayonida izchil rivojlanib boradi.

O'quvchilarda ijtimoiy faollikning shakllanishida motivatsiya muhim o'rin tutadi. Bilim olishga qiziqish, jamoa oldidagi mas'uliyatni his qilish, o'z fikrini erkin bayon eta olish va ijtimoiy foydali ishlarda ishtirok etish istagi ularning faolligini oshiradi. O'qituvchilar tomonidan yaratilgan qo'llab-quvvatlovchi psixologik muhit o'quvchilarning tashabbuskorligini rag'batlantiradi.

Ta'lim jarayonida interfaol metodlar, loyiha asosida o'qitish, munozaralar, debatlar, guruh ishlar va ko'ngillilik faoliyatidan foydalanish o'quvchilarning ijtimoiy faolligini rivojlantirishda samarali vositalar hisoblanadi. Ushbu usullar o'quvchilarda

muloqot madaniyati, liderlik qobiliyati, hamkorlik va muammolarni birgalikda hal etish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Ijtimoiy faollikning rivojlanishida maktab psixologining faoliyati ham muhim o'rin tutadi. Psixolog tomonidan tashkil etiladigan treninglar, kommunikativ mashg'ulotlar va shaxsiy rivojlanishga qaratilgan dasturlar o'quvchilarning o'ziga bo'lgan ishonchini, emotsional barqarorligini va ijtimoiy moslashuvini mustahkamlaydi.

Oila ham ijtimoiy faollikni shakllantirishning asosiy omillaridan biridir. Ota-onalarning farzandlariga ishonch bildirishi, ularning mustaqil qaror qabul qilishini qo'llab-quvvatlashi va oilaviy masalalarda fikrini tinglashi bolada mas'uliyat, tashabbuskorlik va ijtimoiy faollikni rivojlantiradi.

Shuningdek, o'quvchilarning turli tanlovlar, fan olimpiadalari, sport musobaqalari, madaniy tadbirlar va ijtimoiy loyihalarda ishtirok etishi ularning ijtimoiy tajribasini boyitadi, yetakchilik fazilatlarini rivojlantiradi va jamiyat oldidagi mas'uliyatini kuchaytiradi.

Bugungi globalashuv va raqamli texnologiyalar davrida ijtimoiy faollikni rivojlantirishda media savodxonlik, tanqidiy fikrlash va raqamli madaniyatni shakllantirish ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. O'quvchilarni axborotni tanqidiy tahlil qilishga, ijtimoiy tarmoqlardan mas'uliyat bilan foydalanishga va virtual hamda real hayot o'rtasida muvozanatni saqlashga o'rgatish zamonaviy ta'limning muhim vazifalaridan biridir.

Yosh avlodning har tomonlama kamol topishi jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi asosiy omil bo'lishi bilan bir qatorda uning shaxs sifatida ijtimoiy faollashuvida ham yetakchi o'rin tutadi. O'quvchi shaxsining ijtimoiy faolligi quyidagi ikki jihatga ko'ra muhim ahamiyatga ega: birinchidan, shaxsning jamiyatda o'z o'rnini topishi uchun zamin yaratadi, ikkinchidan esa, uning bilimi, kuch-quvvati, imkoniyati hamda iqtidori jamiyat rivoji yo'lida mehnat qilishga yo'naltiriladi.

Manbalarning tahlili shuni ko'rsatadiki, demokratik jamiyatda o'quvchilar ijtimoiy faolligi o'z-o'zidan yuzaga kelmaydi, balki muntazam tarzda maqsadli ravishda olib borilgan pedagogik faoliyat natijasida shakllantiriladi. O'quvchi-yoshlarga nazariy-amaliy bilimlarni berish, ularda ijtimoiy faollik ko'nikma va malakalarini hosil qilish pedagogika nazariyasi va amaliyoti uchun ham o'ziga xos ahamiyatga ega ekanligi bilan dolzarblik kasb etadi.

Muammoga oid nazariy manbalar hamda uning amaliy holatini o'rganish natijalari mazkur sohada bir qator ziddiyatlarning mavjudligini ko'rsatdi. Xususan:

- demokratik jarayonda o'quvchi-yoshlar ijtimoiy faolligiga qo'yilayotgan zamonaviy talablar bilan ularning bilim, ko'nikma va malakalari, mavjud ijtimoiy faollik kompetensiyalari o'rtasidagi nomutanosiblik;
- o'quvchilar ijtimoiy faolligining o'z-o'zidan yuzaga kelmasligi, balki doimiy ravishda olib boriladigan pedagogik faoliyat natijasida shakllantirilishi va bu jarayon

tadqiqiy hamda tahliliy yoʻnalishga ega boʻlgan pedagogik tizim sifatida koʻrib chiqilmaganligi;

– oʻquvchi-yoshlar ijtimoiy faollashuvining bir qator oʻziga xos xususiyatlari va omillari mavjud boʻlib, ular yetarlicha oʻrganilmaganligi;

– oʻquvchi-yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishga yoʻnaltirilgan pedagogik jarayonda ilmiy asoslangan samarali shakl, vosita va metodlarni qoʻllashga boʻlgan ehtiyojning mavjudligi mazkur yoʻnalishdagi tadqiqotlarning muhim ahamiyat kasb etishini anglatadi.

Bu vazifani samarali amalga oshirishda ijtimoiy faol shaxs xususiyatlari va shartlari tarkib toptiriladigan shakl, vosita, usul va metodlarni izlab topish, oʻz navbatida, «oʻquvchi-yoshlar», «ijtimoiy faollik» tushunchalari mohiyatini chuqur tushunish nazariy jihatdan ham, amaliy tomondan ham juda muhim masaladir.

Faollik negizida paydo boʻluvchi yangicha sifatni, oʻziga xoslikni egallagan xatti-harakatning yuksak koʻrinishi, insongagina taalluqliligi tufayli u psixologiya fanida faoliyat deb yuritiladi. Faollikning shaxsga xos koʻrinishi sifatida faoliyat vujudga kelib, u oʻzining psixologik alomatlari bilan xatti-harakatdan farqlanadi. Har qanday faoliyat maqsad va natijalardan iborat jarayon ifodasi hisoblanadi. Faoliyatning ongli ravishda amalga oshirilishi jamiyatning harakatlantiruvchi kuchi va yashash sharti hisoblanadi.

Faoliyat tushunchasi dunyoqarash tamoyili sifatida nemis klassik falsafasi rivojlangan davrdan boshlab qaror topdi. Bu davrda Yevropa madaniyatida shaxsning aql-idrok bilan ish koʻrishi, faolligi va tashabbuskorligining koʻp qirrali yoʻnalishiga xos boʻlgan asosiy tamoyillar deb qarash uchun sharoit yaratildi. Bunday qarashni nemis faylasufi I. Kant boshlab berdi.

Borliqdagi jonli mavjudotlarning oʻziga xos tarzda va muayyan yoʻnalishda, maʼlum darajadagi kuch bilan xatti-harakatni amalga oshirishga undovchi ehtiyojlar ular uchun faollik manbai vazifasini bajaradi. Psixologik manbalarga asoslanib fikr yuritadigan boʻlsak, «...ehtiyoj – jonli mavjudot hayot kechirishining yaqqol shart-sharoitlariga uning shularga tobe ekanligini ifoda etuvchi va mazkur shart-sharoitlarga nisbatan faolligini namoyon qiluvchi holat tarzida ifodalanadi».

Inson faolligi esa ana shu ehtiyojlarning qondirilishi jarayonida namoyon boʻladi.

Ehtiyojlar – organizm, inson shaxsi, ijtimoiy guruh, umuman jamiyatning hayot faoliyatini saqlab turish uchun zarur boʻlgan narsalarga talab, muhtojlikdir. Faoliyat sohasiga qarab mehnatga, bilimga, muloqotga; obʻektiga qarab moddiy, maʼnaviy; subʻektiga koʻra yakka (shaxsiy), guruh, jamoaviy va ijtimoiy ehtiyojlar boʻlishi mumkin.

Inson ehtiyoji uni tarbiyalash jarayonida, yaʼni madaniy jarayon bilan yaqinlasha borib shakllanadi. Chunki insonning oʻz ehtiyojlarini qondirish jarayoni ijtimoiy taraqqiyot bilan belgilanadigan faoliyat shaklini egallashning faol, muayyan maqsadga

yo'naltirilgan jarayoni sifatida alohida ajralib turadi. Shuning uchun ham bu muammoning turli jihatlari pedagogika fanida tadqiq etib kelinadi.

Inson o'zining ijtimoiy majburiyatlari, jamiyat oldidagi burchi, o'z mas'uliyatini tabiiy bir hol, o'z erkinligi va ijtimoiy faolligining uzviy bir qismi sifatida qabul qilgandagina ma'naviy barkamol shaxsga aylanadi.

Insonning faolligi shaxs sifatida shakllanishining asosiy omili hisoblanadi. Mazkur jarayon davomida faqat tabiiy va ijtimoiy dunyoga moslashish yuz berib qolmasdan, balki inson uni o'z xohishiga mos ravishda o'zgartiradi. Jamiyatning o'zi, uning tizimi va tuzilishi, undagi munosabatlarni tashkil etuvchi omillar – bularning hammasi shaxsning bunyodkorlikka asoslangan faoliyatining natijasidir.

Faoliyat, faollik inson shaxsining mohiyatini tashkil etuvchi kuchlarning namoyon bo'lishi demakdir. Dunyoni o'zgartirar ekan, faol shaxs ayni paytda o'z qobiliyatlari, bilim, ko'nikma va mahoratini uzluksiz ravishda takomillashtiradi. U shu asnoda o'zligini anglaydi, faol shaxs sifatida jamiyatda o'zini namoyon qiladi. Bunda insoniy ehtiyojlar doirasi kengayib boradi va shu bilan bir paytda mazkur ehtiyojlarni qondirish vositalarining sifat va son jihatdan o'sishi yuz beradi.

Shaxsning faoliyati ijtimoiy muhit va moddiy omillar ta'sirida shakllanadi. Faollik bo'lmagan joyda shaxs rivojlanmaydi va uning imkoniyatlari ro'yobga chiqmaydi. Shaxsning faolligi aniq maqsadga yo'naltirilgan pedagogik jarayonda tarkib topadi. Shaxs faolligining rivojlanish tendensiyalari mehnat, o'qish, o'yin va muloqot jarayonida amalga oshadi.

Har bir inson jamiyat a'zolari bilan o'zaro ijtimoiy munosabatlarga kirishadi. Jamiyatda qaror topgan ijtimoiy munosabatlar, ularning mazmuni, g'oya va yo'nalishlari shaxsning shakllanishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shaxsning faoliyati, ijtimoiy borliqqa munosabati, hayotiy yondashuvlari, faolligi, o'z navbatida, ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishiga samarali ta'sir ko'rsatadi. Shunga ko'ra shaxs ijtimoiy munosabatlarning faol ishtirokchisi va mahsuli hisoblanadi. Inson ijtimoiy mavjudot sifatida hech qachon ijtimoiy munosabatlardan ajralgan holda yashay olmaydi.

### **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy faollikni shakllantirish o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishning muhim omilidir. Ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash, oila va maktab hamkorligini kuchaytirish, o'quvchilarni jamoatchilik ishlari va ijtimoiy loyihalarga faol jalb etish ularning fuqarolik mas'uliyati, tashabbuskorligi va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantiradi. Ijtimoiy faol, mas'uliyatli va mustaqil fikrlaydigan yoshlarni tarbiyalash jamiyatning barqaror taraqqiyoti va kelajak rivojlanishining muhim kafolatidir.

1. G‘oziyev E.G‘. Yosh davrlari psixologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
2. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
3. Nishonova Z.T. Pedagogik psixologiya. – Toshkent, 2020.
4. Shoumarov G‘.B. Shaxs psixologiyasi. – Toshkent, 2019.
5. Albert Bandura. Social Learning Theory. – 1977.
6. Lev Vygotsky. Mind in Society. – Cambridge, 1978.
7. UNESCO. Global Citizenship Education: Preparing Learners for the Challenges of the 21st Century. – Paris, 2015.
8. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.